

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

SADULLAYEVA MATLYUBA AXROROVNA

RAQAMLAR MOHIYATINING TARIXIY-FALSAFIY TAHLILI

09.00.03 – Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI BO`YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on philosophical sciences**

Sadullaeva Matlyuba Axrorovna

Raqamlar mohiyatining tarixiy-falsafiy tahlili5

Садуллаева Матлюба Ахроровна

Историко-философский анализ сущности чисел.....21

Sadullayeva Matluba Akhrorovna

Historical and philosophical analysis of the essence of numbers.....41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of works published.....46

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

SADULLAYEVA MATLYUBA AXROROVNA

RAQAMLAR MOHIYATINING TARIXIY-FALSAFIY TAHLILI

09.00.03 – Falsafa tarixi

**Falsafa fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.PhD/Fal456 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Safarova Nigora Olimovna
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Salomova Hakima Yusupovna
falsafa fanlari doktori, professor

Karimov Bozorqul Xudoyberdievich
falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil “29” noyabr soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (538 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil “15” noyabr kuni tarqatildi.

(2024 yil “15” noyabr dagi 22 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Namozov B.B.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Muzaffarov F.D.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o‘rinbosari,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon taraqqiyotida sodir bo‘layotgan global o‘zgarishlar, sun‘iy intellekt, texnologik evolyutsiya inson hayotini tubdan o‘zgarishiga olib kelib, jamiyat talablari, taraqqiyotni yangi bosqichga olib chiqishni, ijtimoiy hayot tartiblarini rekonstruktsiya qilishni va qadriyatlarni saqlab qolish uchun muhim strategik ahamiyatga ega islohotlarni talab etmoqda. Axborotlashgan jamiyatda raqamlashtirish algoritmik mohiyat kasb etayotgan bir davrda, raqamning falsafiy mohiyatini tadqiq etish gumanitar fanlar oldida turgan dolzarb muammodir. Shu sababli, sonlar falsafasidagi ilmiy kategoriyalar, atributiv apparatning elementi hisoblangan raqamning tabiati, raqam va ramz dialektik aloqadorligini, raqamning diniy-mifologik, kosmogonik g‘oyalar, urf-odatlar va qadriyatlar bilan bog‘liq jihatlarini hamda ularning informatsion va estetik vazifalari, gnoseologik va madaniy xususiyatlarini tarixiy-falsafiy nuqtayi nazardan ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani va yetakchi ilmiy markazlarida sonlar nazariyasiga doir dalil va g‘oyalarning amaliyotga tatbiqi, raqamlarning g‘oyaviy ahamiyati, rivojlanishi, sonlar tushunchasining umumlashtirilishiga oid fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Jamiyat mentalitetidagi o‘zgarishlarni falsafiy kontekstda talqin qilish, raqam tabiatini ilmiy kognitiv vosita sifatida tadqiq etish zamonaviy fan oldida turgan muammolardan biri - sun‘iy intellekt masalasi intellektual rivojlanishning yuqori darajasiga o‘tishga, madaniy rivojlanishning yangi bosqichiga ko‘tarilishga imkon beradi. Raqam gnoseologik jihatdan ifoda etish usuli sifatida bir vaqtning o‘zida fikrni qisqartirish orqali umumlashtirish, uning falsafiy mohiyatini turli kontekstlarda shakllantirishni ta‘minlaydigan xususiyatlarini, aniqlash, ideallikning reallik bilan uzviy bog‘liqligi kabi falsafiy xossalarni tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga muvofiq raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, ijtimoiy sohalarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hamda yoshlar orasida axborot texnologiyalarini ommalashtirish, shuningdek, aholining barcha qatlamlari orasida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishga oid qator islohotlar amalga oshirilmoqda. “Mamlakatimiz ichki hayotida kuzatilayotgan ochiqlik va yangilanishlar, shuningdek, iqtisodiyotni liberallashtirish, bozor iqtisodiyoti munosabatlarini rivojlantirish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, yangi texnologiyalarni joriy qilish, raqamlashtirish, ta‘lim, ma‘naviyat va ma‘rifatni yuksaltirish, fuqarolar faolligining o‘sishi va inson huquqlari himoyasiga e‘tibor - bularning barchasi, hech shubhasiz, O‘zbekistonning tashqi siyosatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda”¹. Shu maqsadga muvofiq ochiq va raqobatbardosh iqtisodiyotni barpo etish hamda aholining raqamli savodxonligini oshirishda raqamlarning genezisida natural raqamlar, ritm tushunchasi, an‘anaviy g‘oyaviy-badiiy, ramziy-majoziy, tarbiyaviy ma‘nolari hamda arxitektura evolyutsiyasida ularning simvolik xususiyatlarini tarixiy-falsafiy asoslash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2021. –Б. 331.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, farmonlari, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 23-iyundagi PQ-3080-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2024-yil 15-maydagi PQ-178-son “Hududlarda yoshlarga raqamli texnologiyalar va xorijiy tillarni o‘rganish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan “IT-shaharcha”lar faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Jahon ilm-fanida raqamlar muammosi falsafiy nuqtayi nazardan tizimli ravishda tadqiq etilmagan bo‘lsa-da, raqamning tabiatini o‘rganishga qaratilgan asarlar, tadqiqotchilarning pozitsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy ishlar o‘ziga xos xususiyatga ega. Jumladan, K.Menninger, Burbaki, B.Frolov, O.Shpengler, A.Yushkevich, G.Veyl, L.Levi-Bryul, S.Lur’e, D.Stroyk, E.Taylor, P.Florenskiy, O.Shpengler asarlarida raqamning ayrim jihatlariga to‘xtalib o‘tilgan².

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan I.Bashmakova, E.Berezkina, B.Gnedenko, A.Losev, M.Marutaev, V.Molodshiy, V.Toporov asarlarida inson va raqamli texnologiyalarning o‘zaro ta‘siri, jamiyat va

² Меннингер К. История цифр. Числа, символы, слова. /пер. с англ. Ломанова Е.В. -Москва: ЗАО. Центрополиграф, 2011, -543 с.; Бурбаки Н. Очерки по истории математики. -Москва: Иностранная литература, 1963, -291 с.; Фролов Б.А. Числа в графике палеолита. -Москва: Наука, 1974. -238 с.; Шпенглер О. Закат Европы. -Москва: Мысль, 1993, -666 с.; Юшкевич А.П. Происхождение систем счисления. /Энциклопедия элементарной математики. Т.1. -Москва: ГТТИ, 1951, -С. 11-74; Вейль Т. О философии математики. -Москва: Гостехиздат, 1934. -128 с.; Леви-Брюль Л. Первобытное мышление. -Москва: Атеист, 1930. -337 с.; Лурье С. Я. Теория бесконечно малых у древних атомистов. -Москва: АН СССР, 1935. -199 с.; Стройк Д.Я. Краткий очерк истории математики. -Москва: Наука, 1990. -256с.; Тайлор Э.Б. (Тэйлор Э.Б.). Первобытная культура. Исследования развития мифологии, философии, религии, искусства и обычаев. 2021. -628 с.; Флоренский П.А. Символическое описание. -Москва: «Феникс», 1922, №1, -С. 80-94; Шпенглер О. Закат Европы. -Москва: Мысль, 1993. -666 с.

madaniyatga ta'siri, shuningdek, raqamli sivilizatsiya va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar muammosi tadqiq etilgan³.

Yurtimiz olimlari O.Fayzullaev, U.Karimov, A.Sharipov, A.Rasulov va A.Ahmedov, K.Shadmonov N.Safarova, X.Salomova ilmiy ishlarida sonlar va raqamning zamonaviy davrda inson evolyutsiyasining shakllanishiga ta'siri tadqiq etilgan. Ularda Markaziy Osiyo allomalarining jumladan, al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Koshiy kabi mutafakkirlarning tabiiy-ilmiy va falsafiy dunyoqarashi tahlil etilgan⁴. Shu o'rinda aytish joizki, N.Safarova "Philosophy of the algorithm of Abu Raikhan Beruniy" nomli ilmiy maqolada Beruniyning matematika sohasidagi izlanishlari, X.Salomovanning "Meyorning falsafiy mohiyati va amaliy ahamiyati" kitoblarida me'yor tushunchasining ontologik va gnoseologik tahlilida me'yor tushunchasining kategoriyalaridan biri bo'lgan raqam tushunchasiga doir ilmiy tahlillar, B.Karimovning "Sonlardagi sirli falsafa" nomli monografiyada raqamlarning tarixiy va falsafiy ahamiyati haqida, M.Hajiyeva "Philosophical essence of humanistic ideas of our thinkers."⁵ nomli ilmiy maqolada Markaziy Osiyo mutafakkirlarining riyoziyot ilmiga qo'shgan hissalar haqida ilmiy ma'lumotlar berilgan.

Yuqoridagi tadqiqotlarda raqam genezisini tarixiy rekonstruktsiya qilishga murojaat qilish kuzatiladi. Ushbu ishlardan farqli ravishda mazkur dissertatsiyada raqamning ko'plab talqinlarini qiyosiy tahlil etishga, uning gnoseologik tabiatini o'rganishga e'tibor qaratilgan bo'lib, raqamlarning falsafiy-tarixiy ahamiyatini ochib berishga diqqat qaratilgan.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Navoiy davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq

³ Башмакова И.Г., Юшкевич А.П. Происхождение систем счисления. //Энциклопедия элементарной математики, Т.1. -Москва: Гостехиздат, 1951, -С 65-68; Березкина Э.И. Математика древнего Китая. -Москва: Наука. -311 с.; Бессознательное. Многообразие видения. Новочеркасск: Агентство Сагуна, 1994. -221 с.; Гнеденко Б.В. Математика и научное познание. -Москва: Знание, 1989. -64 с.; Лосев А.Ф. Логическая теория числа. //Вопросы философии, №11, -С. 81; Марутаев -Москва: А. О гармонии как закономерности. //Принци симметрии: историко-методологические проблемы. -Москва: Наука, 1978 -379 с.; Молодший В.Н. Очерки по философским вопросам математики. -Москва: Просвещение, 1969. -303с; Топоров В.Н. Числа. //Мифы народов мира. Энциклопедия в 2 -х ' т. -Москва: изд -во «Останкино», 1991,-С. 629-631;

⁴ Файзуллаев О. Фалсафа ва фанлар методологияси. -Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2006. -Б.128; Каримов У.И. Абу Райхан Беруни. Избр. произведения. Т. IV. Фармакогнозия в медицине (китаб ас-Сайдана фит-тибб). Исследования, перевод, примечания и указатели, -Тошкент: 1973. -С.1120; Шарипов А. Великий мыслитель Абу Райхан Беруни. -Ташкент: Узбекистан. 1972, -175 с.; Шарипов А. Беруний фалсафий карашлари ва Аристотелнинг натурфилософияси, "Беруний туғилган кунининг 1000 йиллигига" -Тошкент: 1973. – Б.71-79; Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар I том. /Таржимон А.Расулов. Изохларни И.Абдуллаев ва А.Расулов тузган. Масъул муҳаррирлар: И.Абдуллаев ва О.Файзуллаев. -Тошкент: Фан, 1968. –Б.21 -32; Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. биринчи китоб, Қонуни Масъудий. 1 -5 мақолалар. Махсус муҳаррир А.Ахмедов. таржимон А.Расулов. -Тошкент: 1973. -592 б.; Шодмонов Қ.Б. Английская духовность и язык взаимообусловленность лингвофилософского диалога запад-восток. Saarbrücken: LAP LAMBERT Academic Publishing, 2015 -P. 300; Safarova, N. O. Philosophy of the algorithm of Abu Raikhan Beruniy.// Theoretical & Applied Science. 12(104) 2021. -P. 419-421; Salomova H.Yu. Meyorning falsafiy mohiyati va amaliy ahamiyati. -Buxoro: Durdona, 2018. -196 б.;

⁵ Safarova, N. O. Philosophy of the algorithm of Abu Raikhan Beruniy.// Theoretical & Applied Science. 12(104) 2021.- Pages 419-421.; Salomova X.Yu. Meyorning falsafiy mohiyati va amaliy ahamiyati. Buxoro. "Durdona"nashriyoti,2018.-196.; Karimov B.X. Sonlardagi sirli falsafa:monografiya.- Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy, 2024. – 128 b; Khajiyeva M.S. Philosophical essence of humanistic ideas of our thinkers.Central Asian Problems of Modern Science and Education.4 (2). 2019.-Pages 253-268.

II band “Barkamol inson shaxsini shakllantirish va uning ijtimoiy-pedagogik mohiyati” (2022-2026 yy.) tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi raqamlarning falsafiy-tarixiy mohiyatini ochib berish asosida ularning zamonaviy jamiyatning texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sirini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

raqamning o‘ziga xos xususiyatlari, metodologik asoslari va falsafiy ahamiyatini tadqiq etish;

“raqam” kategoriyasining tarixiy ildizlari va shakllanish bosqichlarini aniqlash; raqamning turli kontekstlarda raqamli maydonlarini shakllantirishni ta’minlaydigan xususiyatlarini ochib berish;

raqamning madaniyat tizimida ramz sifatidagi gnoseologik mohiyatini va akseologik jihatlarini tahlil etish;

Markaziy Osiyo mutafakkirlari ijodida raqam haqidagi g‘oyalar, ularning matematika ilmi rivojiga ta’sirini tadqiq etish;

raqamli ramzning polisemantik ma’nodagi falsafiy xususiyatlarini ochib berish;

raqamning antropologik xususiyatlari va ijtimoiy taraqqiyotdagi ratsional ahamiyatini asoslab berishdan iborat.

Tadqiqotning ob’yekti sifatida son va raqamning falsafiy kategoriya sifatida shakllanish jarayoni tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti raqamga falsafiy-tarixiy yondashuvlar asosida uning gnoseologik mohiyatini, antropolik ahamiyatini va ijtimoiy taraqqiyotga ta’sirini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, qiyosiy tahlil, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik, germeneytik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

raqamning ramziy fikrlashga oid tabiati, tafakkur va raqam-ramz munosabati va raqam to‘g‘risidagi diniy-mifologik, kosmogonik qarashlar asosida uning informatsion (axborot savodxonligi, raqamli muhitda yo‘l topish uchun zarur ko‘nikmalarni hosil qilish) va estetik (ramziy-ritmik idrok etish) vazifalari gnoseologik va kulturologik asoslab berilgan;

raqam gnoseologik ifoda etish usuli sifatida fikrni qisqartirish orqali umumlashtirilish, farqlash va ongda o‘zlashtirish, kognitiv faoliyat vositasi ekanligi hamda ramziy (intuitiv, bilish va prognoz qilish) va kategorial (voqelikni anglash, miqdoriy va sifatiy, raqamli maydonni shakllantirish) kabi xususiyatlari isbotlangan;

raqamning elementar hisoblash operatsiyalarida ifoda etish (aniqlash) vositasi sifatida harakat qilish imkonining konvetsional tabiatga ega bo‘lganligi, ideal voqelikning (“uchinchi dunyo”, “ideal soha”) o‘ziga xos shakli - mavhum munosabatlar dunyosi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan raqamlar dunyosining asosini tashkil etishi aniqlashtirilgan;

raqamlarning genezisi natural sonlar, ritm, an’anaviy g‘oyaviy-badiiy, ramziy-majoziy, tarbiyaviy mohiyatga egaligi hamda raqam evolyutsiyasida simvolik xususiyatlari ramziy konstruktsiya vazifasini bajarganligi ongni ramzlar

prizmasidan dunyoni idrok etish, kalendar tizimlari, aqliy xaritalar va madaniy modellarning shakllanishiga ta'siri falsafiy ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

raqamning falsafiy mohiyati, ilmiy nazariy va pragmatik xususiyatlari, ijtimoiy tartibi va uning tarbiyaviy xususiyatlari to'g'risidagi fikr va qarashlarni asosida uning inson kamolotidagi va ma'naviy yuksalishidagi nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan;

ongni ramzlar prizmasi va ularning raqamlardagi ma'nolarini tadqiq etish asosida madaniy antropologiya, psixologiya va simvolizm fanlarini rivojlantirish, xalqaro muloqotni yo'lga qo'yish, madaniy jarayonlarning ijtimoiy ongning shakllanishiga ta'sirini anglash kabi antropologik jihatlari aniqlashtirilgan;

raqamlarning paydo bo'lish sabablari, tarkibi va ichki tuzilishi hamda ularning aksiologik xususiyatlari va ijtimoiy aspektlari kabi metodologik ahamiyatga ega g'oyalardan ijtimoiy institutlar faoliyatida foydalanishga doir taklif-tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlarga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilgari surilgan konseptual g'oyalardan buyuk mutafakkirlarning ilmiy merosi, sonlar va raqamlarning genezisi, ontologik va gnoseologik ahamiyatini tadqiq qilishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarida hamda o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, raqamli faoliyatni rivojlantirish, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi loyihalarning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirishda, ijtimoiy fanlarni integratsiyasini ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati raqam kategoriyasining falsafiy tahliliga oid taklif va tavsiyalardan ilmiy-ma'naviy merosni tadqiq etayotgan tadqiqotchilar faoliyatiga ko'maklashish, xalqaro va respublika anjumanlarini tashkil etish, Fanlar akademiyasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining yosh avlod o'rtasida bilimga intilishni kuchaytirish, ajdodlar merosiga vorislik, azaliy an'analarga sodiqlik, kelajakka ishonch g'oyalarni targ'ib etish, maxsus ko'rsatuv va eshittirishlar, o'quv-ma'rifiy filmlar, media materiallarini tayyorlashda, shuningdek, axborot texnologiyalari sohasidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlarni olib borish, iqtisodiyot tarmoqlarida sun'iy intellekt imkoniyatlarini o'rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish, istiqbolli innovatsion ishlanmalar va startap-loyihalarini amalga oshirish, ularni tijoratlashtirishda hamda "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida transformatsiya qilish dasturlarini amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan

izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Raqamlar mohiyatining tarixiy-falsafiy tahlilini amalga oshirish borasida olingan natijalar asosida:

raqamning ramziy fikrlashga oid tabiati, tafakkur va raqam-ramz munosabati va raqam to'g'risidagi diniy-mifologik, kosmogonik qarashlar asosida uning informatsion (axborot savodxonligi, raqamli muhitda yo'l topish uchun zarur ko'nikmalarni hosil qilish) va estetik (ramziy-ritmik idrok etish) vazifalariga oid nazariy umumlashmalar va xulosalardan Buxoro davlat tibbiyot institutida bajarilgan "Erasmus+" dasturining "Harmonisation and mutual Recognition of Master programmes in occupational and Environmental health (HARMONE)" (2023 yil) amaliy loyihasi doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda ilmiy va nazariy manba sifatida foydalanilgan (Buxoro davlat tibbiyot institutining 2024-yil 1-fevraldagi 05/1739-son ma'lumotnomasi). Natijada, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonini tahlil etish va amalga oshirishning konseptual-falsafiy metodologiyasini ochib berishga va raqamlarning tibbiyot sohasidagi o'rni va roli, bu sohani rivojida raqamlashtirish muhim ahamiyatga molikligi hamda tibbiyotda raqamlar nafaqat miqdoriy o'lchovlar, balki sog'liq, kasallik va inson holati haqidagi tushunchalarning falsafiy aksi sifatida xizmat qilgan;

raqam gnoseologik ifoda etish usuli sifatida fikrni qisqartirish orqali umumlashtirilish, farqlash va ongda o'zlashtirish, kognitiv faoliyat vositasi ekanligi hamda ramziy (intuitiv, bilish va prognoz qilish) va kategorial (voqelikni anglash, miqdoriy va sifatiiy, raqamli maydonni shakllantirish) kabi xususiyatlariga doir ilmiy nazariy tahlillar, falsafiy xulosalar va taklif-tavsiyalar Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi faoliyatida, jumladan 2023-2024-yillarda o'tkazilgan yoshlar ma'naviyatini va axloqini yuksaltirish bilan bog'liq "Yuksak ma'naviyatli yoshlar jamiyat tayanchi", "Yuksak ma'naviyatli yoshlar - Yangi O'zbekiston kelajagi" amaliy loyihalari, targ'ibot tadbirlarini tashkillashtirishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy- ma'naviy tadqiqotlar insitutining 2024-yil 25-oktabrdagi 10/135-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'zbek xalqining ma'naviy qiyofasini takomillashtirish, yoshlarga yuksak axloqiy xususiyatlarga ega bo'lgan har bir shaxsga xos bo'lgan burch, to'g'rilik, o'z Vataniga muhabbat va sadoqat hissini singdirish, tashqi tahdidlar va "ommaviy madaniyat"ning zararli ta'siridan muhofaza qilish tadbirlarining samaradorligini oshirishga, yurtimizda amalga oshiriladigan chora-tadbirlarini takomillashtirish va zamon talabiga moslashtirishga xizmat qilgan.

raqamning elementar hisoblash operatsiyalarida ifoda etish (aniqlash) vositasi sifatida harakat qilish imkonining konventsional tabiatga ega bo'lganligi, ideal voqelikning ("uchinchi dunyo", "ideal soha") o'ziga xos shakli - mavhum munosabatlar dunyosi bilan uzviy bog'liq bo'lgan raqamlar dunyosining asosini tashkil etishiga oid nazariy umumlashmalar va takliflardan O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining 2020-2024 yillarga mo'ljallangan saylovoldi dasturining "III. Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari"da keltirilgan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining 2024-yil 26-iyundagi 02/02-41-son ma'lumotnomasi). Natijada, partiya faoliyatida tizimdagi xodimlarning ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi bilim va ko'nikmalarini

oshirish hamda islohotlarning ta'sirchanligini oshirish, raqamli madaniyat, axborot savodxonligi, mediatahlil sohasida bilim va ko'nikmalarning kengayishiga xizmat qilgan;

raqamlarning genezisi natural sonlar, ritm, an'anaviy g'oyaviy-badiiy, ramziy-majoziy, tarbiyaviy mohiyatga egaligi hamda raqam evolyutsiyasida simbolik xususiyatlari ramziy konstruktsiya vazifasini bajarganligi ongni ramzlar prizmasidan dunyoni idrok etish, kalendar tizimlari, aqliy xaritalar va madaniy modellarning shakllanishiga ta'siriga doir yangiliklar va amaliy takliflardan "O'zbekiston" teleradiokanali "Madaniy-ma'rifiy va badiiy eshittirishlar" muharririyatining 2023-2024 yil yanvar-fevral oylarida efirga uzatilgan "Ta'lim va taraqqiyot", "Millat va ma'naviyat" dasturlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali DUKning 2024-yil 13-fevraldagi O'z/RV-08-24-son ma'lumotnomasi). Natijada, tomoshabinlarning milliy tafakkurini kengaytirish jarayonida gumanistik g'oyalarning mohiyatini chuqur anglashga o'rgatish, raqamlar zamonaviy hayotda muhim ahamiyati, samaradorlikni oshirish, rejalashtirish, tushunish va muloqot qilishga yordam berishi bilan birga, ongli tanlovlar qilish, atrofimizdagi dunyo bilan o'zaro munosabatda bo'lish tarzimizni shakllantiradigan sohalarga tarqalganligi kabi fikrlarni singdirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola (3 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya umumiy hajmi 141 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekti, predmeti, tadqiqotda qo'llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Raqam tushunchasining ilmiy-metodologik va nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida raqamga nafaqat mavhum matematik birlik, balki dunyoqarash va voqelik tuzilishi haqidagi tafakkurning asosiy tomonlarini aks ettiruvchi falsafiy kategoriya sifatida ham qaralishi, falsafada raqamni o'rganish uning ontologik mohiyati – raqam inson ongidan mustaqil ravishda mavjudmi, obyektiv voqelikning bir qismimi yoki bizning fikrlashimizning

shunchaki tuzilishi kabi savollarga to'xtalib o'tilgan. Raqamlarning bilim va madaniy e'tiqodlarning shakllanishidagi o'rni, ularning ramziy ma'nosi va jamiyat hayotining turli jabhalariga ta'siri ochib berilgan.

Dissertatsiyada qadimgi Yunonistonda raqamlarni o'rganish matematika tarixining qiziqarli jihati bo'lib, qadimgi yunonlar raqamlar va arifmetika tushunchalarini qanday ishlab chiqqanligi va qo'llaganligi ochib berilgan. Pifagor, Evklid, Arximed kabi qadimgi yunon matematiklari nafaqat raqamlarning xossalarini o'rgandilar, balki nazariy asoslarni ham ishlab chiqdilar, keyinchalik ular butun matematika rivojiga katta ta'sir ko'rsatdilar. Shu nuqtai nazardan, raqamlarni o'rganish yunon alifbosidagi raqamlarni belgilashning turli tizimlarini ishlab chiqishni, raqamlarning falsafiy va nazariy jihatlarini ham tadqiq etishni qamrab oladi. Ularning tub sonlar, mukammal sonlar va nisbatlar nazariyalari kabi sonli xossalar ustida olib borgan ilmiy izlanishlari keyingi matematik tadqiqotlar va yondashuvlar uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqotchining fikricha, raqamga qiziqish bildirgan falsafiy an'ana Pifagorga tegishli bo'lib, u "hamma narsa raqamdir" degan tamoyilni ilgari suradi⁶. Shuningdek, matematik bilimlar ilmiy bo'lib, ong uchun subyektiv xarakterga ega, ya'ni, raqam yordamida dunyo qonunlarini bosqichma-bosqich o'zlashtirish mumkin.

Qadimgi pifagorchilar raqamlarni fazoviy obrazlar sifatida ko'rishgan, ularni musiqiy ohanglar sifatida eshitishgan. Raqamlar ularning ko'zlari oldida turar, quloq bilan idrok etilardi va shundan keyingina ular aql bilan tushunar edilar⁷. Raqamning bunday ko'rinishi unga alohida e'tibor berish, keyingi faylasuflarning raqamning tabiatiga, borliq tarkibida egallagan o'rniga oid qiziqishlarni uyg'otishi ajablanarli emas. Raqamga e'tibor qaratgan bir qator mutafakkirlar ichida Pifagordan keyin Aflotun ergashadi. Agar dastlabki manbalar yo'qligi sababli raqam haqidagi Pifagor ta'limotini rekonstruktsiya qilish qiyin bo'lsa, unda Aflotun ta'limoti orqali boshqa turdagi muammo kelib chiqadi. Birlikni va ko'plikni anglagan kishi, agar ularni raqam yordamida ko'rib chiqsa, dono bo'ladi, aks holda, biluvchining fikri muqarrar ravishda ma'nosiz va cheksiz bo'lib qoladi⁸. Bilish harakatida darhol birlikdan cheksizga o'tish mumkin emas, uni yagona qismlarga ajratish, tuzish kerak. Shuningdek, cheksizga murojaat qilib, cheksizlik fonida narsalarni raqam jihatdan mazmunini aniqlash kerak.

Tadqiqotda raqam na birlikka, na ko'plikka tegishli, balki chegara va chegarasiz "qorishmadan" hosil bo'lgan holda, birlik va ko'plikni bog'laydigan vositachi hisoblanishi qayd etilgan. Ko'plik raqamlarga va raqamlar orqali birlikda bo'ladi va aksincha, birlik raqamlar orqali ko'plikni bog'laydi. Raqamlar g'oya, ma'no va hissiy, haqiqatni bog'laydigan ramz vazifasini bajaradi. Raqam - bu birlikdan ko'plikka o'tishni ifodalaydi va o'z ichiga ramzni qamrab oladi. Shu ma'noda, raqam - bu ko'plikda birlikning aksini va birlikda ko'plikning mavjudligini ko'rsatadigan ramz. Xuddi Pifagor raqami singari, Aflotun raqam-ramzi ham uni qanday "ko'rish"ga bog'liq bo'lib, turli xil talqinlarga ega. Aflotun

⁶ Аристотель. Метафизика. Собр. соч. в 4 -х т. Т.1. - Москва: Мысль, 1975. -С. 79.

⁷ Лебедев А.В. Фрагменты ранних греческих философов. - Москва.:Наука, 1989. - С.443

⁸ Порфирий. Жизнь Пифагора. / В кн. Диоген Лаэртский. О жизни, учениях и изречениях знаменитых философов. - Москва: Мысль, 1979. - С.458.

“ko‘rish”ni “hissiy” va “aqli” deb ajratib turadi⁹. Ko‘rinadigan dunyo narsalariga yo‘naltirilgan hissiy ko‘rishni raqamni arifmetik hisoblash sifatida ochib beradi. Aqliy bilish raqamlarni sifatli biror narsaning mohiyati sifatida ko‘rishga o‘rgatadi. Hissiy bilish – metafizik mohiyatga ega. Ammo hissiy analog ikki tomonlama: u miqdoriy raqamdan haqiqiyga, “haqiqat va mavjudlik porlayotgan joyga” olib borishi yoki “zulmat bilan aralashish, paydo bo‘lish va yo‘q qilish sohasiga kirib borishi” mumkin, shunda jon sanoqli raqamni bilish bilan chegaralanadi. Shu sababli ko‘zlar bizga raqamni yoki hissiy hodisa sifatida, yoki “shiftdagi naqshlar” sifatida, yoki yuqori empirik bir narsa sifatida, osmon bizga beradigan yuqori analog sifatida ochib beradi. Aflotun jonning bilishda bosib o‘tadigan turli yo‘llari, ramzni ochish yo‘llari haqida xabar beradi. Bir yo‘l - bu “shart-sharoitlar asosida, obrazlardan foydalanib va boshiga emas, balki oxiriga intilish” harakati hisoblanadi. Boshqa yo‘l - bu shart-sharoitdan boshlanishgacha, bunday shart-sharoitga ega bo‘lmagan joyga ko‘tarilish. Birinchi holatda bo‘lgan obrazlarsiz, lekin g‘oyalarning o‘zi yordamida u jonni o‘ziga tortadi. Aflotun uchun “oxiriga borish” g‘oyalarni tug‘diruvchi markazga, “ko‘zda tutilmagan”, “oldindan shart-sharoitlarsiz”, “o‘ta muhim boshlanish”ga borishni anglatadi¹⁰.

Tadqiqotchi fikricha, Aflotun raqami xuddi Pifagor raqami singari, borliqni bilishga, birlik va ko‘plikning munosabatini tushunishga xizmat qiladi. Faqat raqam vositasi orqali ma’lum bir aniq bilim: “butun raqamni asosga qo‘yish kerak” bo‘lishi mumkin. Xuddi shunday, “raqamni bilmagan hech kim hech qachon adolatli, go‘zal, yaxshi va boshqa shunga o‘xshash narsalar haqida to‘g‘ri fikrga ega bo‘la olmaydi va uni o‘zi uchun hisoblab, o‘zgani ishontira olmaydi”¹¹. O‘lchovga murojaat qilish raqamga murojaat qilishni anglatadi; o‘lchov bo‘lmagan joyda raqam ham bo‘lmaydi. Raqam - bu borliqni, hissiy dunyoni anglash vositasidir. Raqam ko‘plikni birlikka bog‘laydi, raqam birlikdagi ko‘plikning mutanosibliigi va uyg‘unligini belgilaydi. Raqamning rolini tushunishga yordam beradigan misol sifatida Aflotun grammatikani - bir-biridan farq qiladigan, ammo harflar raqami orqali bir-biriga bog‘langan tizimni keltiradi. “Harflar o‘rtasida hamma narsani ma’lum bir birlikka yetaklovchi yagona bog‘lanish”¹² bo‘lganidek, narsalar o‘rtasida ham borliq olamida hamma narsani bir-biriga bog‘lab turadigan raqam uyg‘unligi mavjud. Ammo raqamning bu uyg‘unligi “yuqori” sohada, idealda, samoviy dunyoda raqam uyg‘unligining ko‘rinishidir. Hissiy, yer yuzidagi raqam ichki jihatdan go‘zal, yaxshi, haqiqat, ya’ni samoviy bilan bog‘liq, chunki bu raqam ritm, tartib, uyg‘unlik, totuvlik, hamjihatlikni - go‘zal, yaxshi, haqiqatning atributlari bo‘lgan hamma narsani anglatadi. Raqamning ta’siri, uning yer yuzidagi ishlab chiqarish kuchi samoviy sohadagi raqamning ta’siri va kuchiga o‘xshaydi. Shunday qilib, raqamning ramzi bir xil maqsadga ega, turli sohalarda bir xil ma’noga ega, ammo bu ma’noning namoyon bo‘lishi va amalga oshirilishi, printsipi bir xil emas, o‘xshashlik, analogiya bilan bog‘liq.

Tadqiqotda ramz kategoriyalarining talqini qiyosiy tahlil etilgan. Jumladan, I.Kant ramz tushunchalarini o‘rganish dunyoni tushunish va idrok etish o‘rtasidagi

⁹ Платон. Государство. / Пер.Егунова, - Москва: АСТ, 2022, -С.448.

¹⁰ Платон. Государство. / Пер.Егунова, - Москва: АСТ, 2022, -С.448.з

¹¹ Платон. Диалоги. «Филеб». - Москва: Директ-медиа, 2002. – С.142.

¹² Платон. Диалоги. «Филеб,Государство, Тимей, Критий». – Москва: АСТ, 1999, - С.234.

bog‘liqligi tahlil etilgan. U hissiy va intellektual bilimlarni farqlab, tushunchalar, jumladan, raqamlar haqidagi tushuncha oddiy empirik tajribadan tashqariga chiqadi, deb ta’kidlaydi. Kant uchun raqamlar voqelikni tartibga solish va idrok etishda yordam beradigan aprior konstruksiyalar bo‘lib xizmat qiladi, lekin ular asl falsafiy kontekstlardan ajratilganda o‘zlarining muqaddas yoki ichki ma’nosini yo‘qotadi. Bundan farqli o‘laroq, Pifagor raqamlarni mavjudlik tabiati uchun asos deb, hamma narsani raqamli munosabatlar orqali tushunish mumkin deb hisoblaydi. Uning “Hamma narsa raqamdir” degan mashhur iborasi raqamlar nafaqat o‘lchash quroli, balki haqiqatning o‘z mohiyati degan g‘oyani aks ettiradi. Platon raqamlar va matematik belgilar shakllar sohasidagi abadiy haqiqatlar va ideallarni ifodalash uchun Pifagor fikriga tayangan. U o‘z asarlarida, ayniqsa “Timey”¹³da, koinotning tuzilishida va falsafiy tadqiqotlarda raqamlarning ahamiyatini muhokama qiladi. Pifagor va Platon raqamlarni dunyoni anglash uchun zarur deb bilgan bo‘lsa, Kant bu qarashga boshqacha yondashib, raqamlarning bilish nazariyasi jihatlariga e’tibor qaratgan hamda ularni metafizik kelib chiqishidan uzoqlashtirgan. Ushbu o‘zgarish tarix davomida matematika falsafasi va belgilar mohiyatidagi kengroq rivojlanishni namoyon etadi.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, raqam voqelik tabiati va bilimlar tuzilishi haqida fikr yuritish uchun inkor etib bo‘lmas manba bo‘ib hisonlanadi. U ilmiy fanlardan metafizik va ruhiy ta’limotlargacha bo‘lgan inson tafakkurining turli jabhalariga singib ketgan. Raqam nafaqat dunyoni miqdoriy baholash va tavsiflash vositasi, balki turli madaniyatlar va davrlarning chuqur e’tiqodlari va g‘oyalarini aks ettiruvchi ramziy va mavhum tushunchadir. Raqamning falsafiy mohiyatini o‘rganish nafaqat dunyoning ilmiy asoslarini tushunish, balki uning metafizik tabiatini anglashga ham imkon beradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Madaniyat tizimidagi ramz sifatida raqamning gnoseologik mohiyati”** deb nomlangan bo‘lib, unda ramz muammosining kelib chiqishi, ramzga e’tibor, bir tomondan, matematik fikrning rivojlanishi, boshqa tomondan, qadimgi madaniyat shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liqligi ochib berilgan.

“Ramz” tushunchasining nazariy talqini qadimgi va o‘rta asrlar chegarasida, xristian dunyoqarashi shakllanganda paydo bo‘ladi. O‘rta asr hayoti va tafakkuri ramzlar bilan to‘yingan edi, ramziylik universal edi. Fikrlash yashirin ma’nolarni abadiy ochish, “muqaddas harakat qilish” degan ma’noni anglatadi¹⁴. Gegelning so‘zlariga ko‘ra, barcha ma’nolar yoki ichki aniqliklar ikki toifaga: “bu mening bevosita birligimga tegishli (masalan, g‘azab, qasos, hasad, pushaymonlik) “va o‘zimdagi va o‘zim uchun umumiy bo‘lgan - huquq, axloq, din, go‘zal va haqiqat”¹⁵ga bo‘linadi.

Dissertatsiyada qadimgi davrlarda Hindiston va Xitoyda matematik madaniyat uzoq vaqt davomida o‘ziga xos tarzda rivojlanib, keyin boshqa mamlakatlar, shu jumladan qadimgi Yunoniston madaniyati bilan o‘zaro aloqaga kirishganligi tahlil qilingan. Hindiston, shuningdek, qadimgi Gretsiya ilmiy merosining vorislari Arab

¹³ Лосев А.Ф. История античной эстетики. / Комментарии к диалогам Платона. -Москва: Искусство, 1963. – С.464

¹⁴ Гегель Г.В.Ф. Энциклопедия философских наук. Том 3. Философия духа. -Москва: Мысль, 1977. -С.117.

¹⁵ Гегель Г.В.Ф. Энциклопедия философских наук. Том 3. Философия духа. -Москва: Мысль, 1977. -С.117.

xalifaligi tarkibiga kirgan Markaziy Osiyo mamlakatlari olimlari bo'ldi. VII asrda Arabiston yarim orolida joylashgan qabilalar, arablar qo'shni xalqlarni zabt etdilar. Tez orada ularning hukmronligi Himoloydan Pireney yarim oroligacha, Janubiy O'rta yer dengizidan Kaspiydan tashqari cho'llargacha bo'lgan ulkan hududlarga tarqaldi. Fathlar yangi din - Islom bayrog'i ostida amalga oshirildi. Ushbu dinning tili - arab tili ularning davlat va asosiy ilmiy tiliga aylandi. VII-XV asrlarda Islom mamlakatlari madaniyati va ilm-fani rivojlanib, gullab-yashnagan.

Matematikani yanada rivojlantirish uchun Muhammad al-Xorazmiy (783-850 yy) asarlari katta ahamiyatga ega edi. Uning vatani Markaziy Osiyodagi Xorazm edi. "Donishmandlar uyi"da yetakchi matematik va astronom edi. Al-Xorazmiyning arifmetika va algebra bo'yicha asarlari uning ismini abadiylashtirdi. Al-Xorazmiyning "Hind hisobi to'g'risida" kitobida arifmetika pozitsion o'nlik tizimi asosida bayon etilgan. XV asr oxiriga kelib, bosib chiqarish tufayli raqamlarni yozish (A. Dyurerning 1514-yildagi "Melanxoliya" gravyurasida ular odatiy shaklga ega) birlashtirildi. Bu raqamlar qadimdan arabcha deb nomlanmagan. Bizning davrda algoritm ma'lum bir sinf muammolarini hal qilish uchun aniq ko'rsatma deb atala boshlandi. U matematikada, uning ilovalarida, kundalik hayotda keng foydalaniladi. Al-Xorazmiy "al-jabra va al-muqabali hisob-kitoblari haqida qisqacha kitob" asari bilan matematikaning "Algebra" deb nomlangan (kitob nomidagi tegishli so'zdan) qismini shakllantirishga asos solgan. Al-jabr (to'ldirish) operatsiyasi tenglamaning olib tashlangan atamalarini uning boshqa qismiga qo'shilgan atamalar shaklida o'tkazishni anglatardi; al-mukabala (qarama - qarshilik) - ikkala qismdagi teng atamalarning qisqarishi bo'lib, ushbu operatsiyalar har qanday birinchi yoki ikkinchi darajali tenglamani kitobda ko'rib chiqilgan oltita kanonik turlardan biriga olib borishga imkon berdi. Har bir tur uchun Al-Xorazmiy faqat tenglamalarning musbat ildizlarini topish qoidasini beradi¹⁶.

Xorazmiyning "Kitob-al-jabr-mukobala" (to'ldirish va qarama-qarshilik kitobi) asari Al-Xorazmiyga jahon shuhratini keltirdi. Uning al - jabr bo'yicha xizmatlari nafaqat atamani (algebra) yaratishda, bu matematikada yangi davrni boshlab berdi. Muqaddimada Al-Xorazmiy risolada foydalangan bir qator atamalarning ma'nosini ochib beradi: "oddiy raqam" (dirham), "mulk" (mol), "kvadrat ildiz" (jazr)¹⁷.

Dissertatsiyada ramz haqida so'z boradi. Har bir moddiy predmet yuqori sohada biron bir narsaning belgisi sifatida qaraldi va shu bilan uning simvolga aylandi. Simvolizmdagi asosiy qonun - bu voqelikning barcha darajalarini bir-biriga bog'laydigan, ularni bir-biriga birlashtiradigan, umuman tabiiy tartibdan boshlab va g'ayritabiiy tartibga rioya qiladigan o'xshashlik va analogiya qonunidir. Simvolizmda pastki har doim eng yuqori narsani anglatadi, ramz yuqori ma'noga, g'oyaga, birlikka yo'naltiruvchi qo'llanma, ko'rsatgich bo'lib xizmat qiladi.

Simvolizmda o'xshashlik qonuni quyidagicha ifodalanadi: pastdagi narsa, yuqoridagiga, yuqoridagi narsa, pastdagiga o'xshab, nafaqat ramzlarni idrok etishning turli darajalari o'rtasida harakat qiladi, balki u turli xil ob'yektlar, hodisalar

¹⁶ Кабулов В.К., Файзуллаева А.Ф., Назиров Ш.А.. Ал- Хорезми, алгоритм и адгоритмизация.- Ташкент.: Фан, 2006. -С.77.

¹⁷ Юшкевич А. П. О труде по арифметике Мухаммада ибн Мусы ал-Хорезми // Мухаммад ибн Муса ал-Хорезми. К 1200 -летию со дня рождения. -Москва: Мысль, 1983. -С.18

o'rtasidagi munosabatlarni, ramzni ko'rib chiqishning bir darajasi ichida, madaniyat kontekstining bir darajasi ichida belgilaydi¹⁸. Bundan tashqari, simvolizm shakldagi o'xshashlikdan tashqari, tarkibdagi o'xshashlik, ya'ni funktsional o'xshashlik bo'lishi mumkin.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, ongni ramzlar prizmasidan va ularning ma'nolarini raqamlar kontekstida o'rganish dunyoni idrok etish va talqin qilishda o'ziga xos istiqbolni ochadi. Turli madaniy va tarixiy sharoitlarda raqamlar jamiyatning ijtimoiy, diniy va falsafiy qarashlarini ifodalovchi asosiy ramzlar sifatida xizmat qilib kelgan va bugungi kunda ham shunday vazifani bajarmoqda. Masalan, raqamlar qadimgi sivilizatsiyalar astronomiyasida kosmosning tartibi va tuzilishini ramziy ifoda etishi, shuningdek, kalendar tizimlari va bashoratlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Raqamlardagi belgilarni tahlil qilish orqali ongni o'rganish turli madaniy va ijtimoiy kontekstlarda raqamlar qanday qabul qilinishi va talqin qilinishini tushunishga imkon beradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Raqamning ijtimoiy-antropologik mohiyati va ratsional ahamiyati”** deb nomlanib, unda fikrlash genezisi muammosi, fikrlashning tabiati, kelib chiqishi va rivojlanishini tasvirlaydigan nazariyalar tahlil etilgan.

